

ARAB TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA JAHON TAJRIBASI

Abdullayeva Ruqiya Muhammadovna

Yangi asr universiteti
"Mumtoz sharq filologiyasi"
kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili fanini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari kamchiliklari va muammolari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, xorijiy tilni shu jumladan arab tilini o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy interfaol innovatsion texnologiyalar va bugungi kunda ta'limga yangicha qarashlar haqida nazariy, ilmiy tushunchalar berilgan tinglab tushinish, o'qib tushinish va gapirish kabi ko'nikmalar o'rganishda zamonaviy interfaol ta'lim texnologiyalaridan, onlayn platformalari interaktiv metodlar multimedialar, rolli o'yinlar va boshqa metodlarning o'ziga xos o'rni tahlil qilingan. Hamda xorijiy tilni xususan arab tilini o'rganishdagi yutuq va kamchiliklari sanab o'tildi. Shuningdek maqolada jahon tajribasida arab tilida dars o'tish jarayonidagi yutuqlar va kamchiliklar batafsil bayon etildi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy innovatsiya, xorijiy tilni, interfaol ta'lim, interaktiv metod, multimedialar, samarali ekspress-metod, lingvomadaniy metod.

Аннотация: В данной статье показаны преимущества, недостатки и проблемы использования современных инновационных технологий в обучении арабскому языку. Также приводятся теоретические и научные концепции о современных интерактивных инновационных технологиях, используемых в процессе обучения иностранному языку, в том числе арабскому языку, и новых подходах к образованию сегодня. Анализируется конкретная роль современных интерактивных образовательных технологий, онлайн-платформ, интерактивных методов, мультимедиа, ролевых игр и других методов в обучении таким навыкам, как аудирование, понимание прочитанного и говорение. Также перечислены достижения и недостатки в обучении иностранному языку, особенно арабскому языку. В статье также подробно описываются достижения и недостатки в процессе обучения арабскому языку в мировом опыте.

Ключевые слова: Современные инновации, иностранный язык, интерактивное образование, интерактивный метод, мультимедиа, эффективный экспресс-метод, лингвокультурологический метод.

Abstrac: This article shows the advantages, disadvantages and problems of using modern innovative technologies in teaching the Arabic language. Also, theoretical and scientific concepts about modern interactive innovative technologies used in the process of teaching a foreign language, including the Arabic language, and new approaches to education today are given. The specific role of modern interactive educational technologies, online platforms, interactive methods,

multimedia, role-playing games and other methods in learning skills such as listening comprehension, reading comprehension and speaking is analyzed. Also, the achievements and shortcomings in learning a foreign language, especially the Arabic language, are listed. The article also describes in detail the achievements and shortcomings in the process of teaching Arabic in world experience.

Key words: *Modern innovations, foreign language, interactive education, interactive method, multimedia, effective express method, linguacultural method.*

Barchamizga ma'lumki, istiqlolning ilk kunlaridanoq ona tilimizni yanada rivojlantirish, ayniqsa, chet tillarini o'qitishni kuchaytirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Hozirgi davrda chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va talabning ortishi, uni o'rgatish sifatini oshirishni, malakali yetuk kadrlar tayyorlashni taqozo qilmoqda. Mamlakatimiz jahon sahnasida o'ziga xos yo'lni tanlab, juda ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalarni yo'lga qo'ygan ekan, tabiiyki, bunday sharoitda ayniqsa biz tilshunoslarga bo'lgan talab oshadi. Bugungi kunda yurtimizda xorij tillarini o'rganish, ayniqsa sharq tillarini imkon qadar yosh avlodga tezroq va samarali o'rgatish jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi hozirgi kunda arab tilini ilmiy o'rgantish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamon talablaridan kelib chiqib, arab tilshunosligi sohasiga alohida e'tibor berish, malakali arab tili o'qituvchilari tayyorlash ishiga jiddiy yondashish kerak bo'ladi. Zero, bugun O'zbekistonning arab davlatlari orasida nufuzi yuksalib, xalqaro munosabatlar kengayib borayotgani yuqori saviyali arab tilidan tarjimon mutaxassislariga bo'lgan talab, ehtiyojni yanada orttirmoqda. Shu o'rinda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yoshlarga ishonch bildirib aytgan quyidagi so'zlari ham diqqatga sazovardir: *"Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"*.¹

So'nggi yillarda arab tilini o'qitishda juda ko'p takliflar mavjudligini inobatga olsak, "Siz qaysi metod bo'yicha dars berasiz?" degan savol yanada dolzarblashib, intellektual mahsulot iste'molchilari iste'mol darajasining o'sganligi namoyon bo'ladi. Ta'lim bozori til o'qitish bo'yicha har xil turdagi kurslarni taklif etayotgan shiddatli zamonamizda, vaqtni oltinga teng deb bilgan va o'z ishi, o'qishi va yo'nalishini rivojlantirishni o'ylaganlar ko'p hollarda "Ikki hafta ichida arab tilini o'rganish", "Samarali ekspress-metod", "Ongosti darajasidagi arab tili va boshqa shu kabi nomlardagi qisqa muddatli kurslarni tanlashadi. Xo'sh, mazkur o'qitish metodlari qay darajada samarali? Ular kutilgan natijani beradimi? Yaqin o'tmishda arab tilini

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli Qarori.

o'qitishda asosan grammatikaga e'tibor berilardi. O'qish va matnlar tarjimasiga, ba'zan esa bir xillikni biroz bo'lsa da jonlantirish uchun "matn"larni yod olish hamda diktant yozishga juda ko'p vaqt ajratilardi mazkur jarayon mashaqqatli mehnatni talab etardi. Bugun xorijiy til o'qitishda asosiy taklif tinglovchining talabiga qarab shakllantirilmoqda. Lingvistika va xorij tillarini o'qitish metodikasi bo'yicha yetuk mutaxassis S.G.Ter-Minasovning fikricha, "Bugungi kunda tilni o'qitish funksionallashib, Integratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida xorij tillari, xususan, ingliz tilini o'rganish yanada dolzarblashdi. Ammo zamonaviy til o'rganuvchilarni tilning tarixi yoki uning nazariyasi qiziqtirmaydi. Xorijiy til ular uchun hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lib qoldi. Hozirda chet tilini o'rganayotgan talabalarga bir necha metodlar taklif etilmoqda. Ulardan biri fundamental metoddir. U kamida 2-3 yillik o'qishni, grammatikani chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ushbu metod, asosan, arab tilshunos va manbashunoslarini tayyorlashda qo'l kelib, o'qish yakunida talabalar dunyoga "tarjimon, notiq", ya'ni til egasining (tashuvchisining) ko'zi bilan qarashga erishadilar. Uning asosida til real va to'liq muloqot vositasi sifatida o'rganiladi. Hozirda fundamental metod o'z maqsadini o'zgartirmagan, ammo boshqa ko'plab metodlar aynan fundamental metod bilan raqobat maydoniga chiqishgan. Ana shulardan biri lingvososiomadaniy metoddir. Mazkur metod tilni ijtimoiy va madaniy muhitda o'rganishni taqozo etadi. Uning tarafdorlari talabalar leksik-grammatik shakllarni o'rganishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yilishini qoralaydilar. Ularning fikricha, "shaxs madaniyat mahsulidir. Demak, til ham". Aksariyat holatlarda tilni ijtimoiy hayot bilan muvofiq o'rganmaslik ko'pgina xatolarni keltirib chiqaradi. Masalan, arab tilini o'rganuvchi talaba bir qarashda shakliy jihatdan to'g'ri bo'lgan quyidagi iborasini ko'rishimiz mumkin,

ما أجمل السماء [maa ajmalus-samaa'i]-osmonning go'zalligi nimada?

ما أجمل السماء [maa ajmalas-samaa'a]-osmon qanchalar go'zal.

ما أجمل السماء [maa ajmalas-samaa'u]-osmon go'zal bo'lmadi.

Ushbu jumlar shakliy jihatdan bir hil ko'rinsada, ma'no jihatidan farqlanadi.

1-so'roq gap, 2-ta'jub fe'li, 3-fe'liy jumla. Arab tili nahu-sarfini yaxshi bilmagan talabalar uchun iboralari orasidagi farqni anglay olishmaydi. Tilshunoslarning fikricha, bunday xatoliklarning 52% i ona tilidagi iboralarni arab tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish bo'lsa, 44%i til o'rganuvchi salohiyatining yetarli emasligi bilan belgilanadi. Tilni o'rganish jarayonida eng muhimi uzatilayotgan axborot mazmunining qay darajada to'g'ri ekanligidir. اللغوية والاجتماعية والثقافية "lingvomadaniy"metod ikki turdagi muloqotni qamrab oladi. Bu til va madaniyatlararo muloqotdir. Oliy o'quv yurti talabasi nafaqat arab tilida o'qish, yozish va tarjima qilishda yuqori bosqichlarni egallashi, balki arab tilini o'zga xalq madaniyatini ko'ra olishni ham o'rganishi lozim. Arab tili o'qituvchisi til o'rgatish jarayonida aynan shu jihatlarga e'tiborni kuchaytirishi kerak.

Arab tilini o'qitishdagi jahon tajribasi:

Arab tilini o'qitish sohasida turli mamlakatlar o'ziga xos yondashuvlarni qo'llashadi. Jumladan:

Yevropa mamlakatlari: Arab tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda lingvistik yondashuvdan foydalanadi. Shuningdek, tilini xorijiy til sifatida o'rgatish uchun maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilgan. Arab tilining Yevropada o'rganilishi va tarqalishi bir nechta omillarga bog'liq. Arab tili Yevropada asosan quyidagi kontekstlarda o'rganiladi: **Ta'lim va akademik soha:** Yevropada arab tili ko'plab universitetlar va til markazlarida o'rgatiladi. Bu, ayniqsa, Sharqshunoslik, Islomshunoslik, tarix, siyosat va xalqaro munosabatlar bo'yicha mutaxassislar uchun muhimdir. Arab tili Yevropadagi ba'zi universitetlarda majburiy til sifatida o'rganiladi. **Iqtisodiy va siyosiy aloqalar:** Arab davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar va siyosiy aloqalar, xususan Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi davlatlar bilan savdo va diplomatik munosabatlar, arab tilini o'rganishning boshqa bir sababidir. **Immigratsiya va madaniy almashinuv:** Yevropada ko'plab arab tilida so'zlashadigan immigrantlar bor. Bu aralash tillar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarga olib keladi. Arab tiliga qiziqish ba'zi Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa Fransa, Buyuk Britaniya va Ispaniyada keng tarqalgan. **Madaniyat va san'at:** Arab tili Yevropada arab madaniyatining, adabiyotining, musiqasining va san'ati bilan bog'liq ravishda o'rganiladi. Arab adabiyoti va she'riyatining Yevropaga ta'siri kuchli. Shu sababli, arab tili Yevropada nafaqat akademik, balki madaniy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda ham ahamiyatga ega.

Osiyo davlatlari: Diniy ehtiyojlar va xalqaro aloqalar uchun arab tilini o'rgatish tizimlari rivojlangan. Diniy ta'lim muassasalari arab tilini o'qitishda asosiy rol o'ynaydi. Malayziya va Indoneziyada arab tili maktab va universitetlarining majburiy fanlaridan biridir. Osiyo davlatlarida arab tilini o'qitish metodlari turlicha bo'lib, har bir mamlakatning ta'lim tizimi, madaniyati va tilga bo'lgan yondashuvi asosida farqlanadi. Quyidagi metodlar keng tarqalgan:

1. Kompyuter va texnologiya yordamida o'qitish. Onlayn kurslar va mobil ilovalar: Bugungi kunda arab tilini o'rganish uchun ko'plab onlayn platformalar mavjud. Masalan, Duolingo, Memrise kabi ilovalar yordamida arab tilini o'rganish mumkin. Ushbu metodlar nafaqat grammatika, balki so'z boyligini, talaffuzni va tinglash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Interaktiv texnologiyalar: Ba'zi Osiyo davlatlarida arab tilini o'rgatish uchun interaktiv dasturlar, video darslar va onlayn sinflar ishlatiladi.

2. Kommunikativ metod. Talaffuzga katta e'tibor: Ko'plab Osiyo mamlakatlarida, xususan, Misr va Saudiya Arabistonida, til o'rganishning kommunikativ metodlari keng tarqalgan. Ushbu metodda talaffuz, so'zlashuv va amaliy mashqlar ustuvor hisoblanadi. Maqsad o'quvchiga arab tilida so'zlashish va tushunishni o'rgatish.

3. Grammatik-innovatsion metod. Alifbo va grammatika o'qitish: Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Yaponiya va Janubiy Koreyada, arab alifbosini va grammatikani o'rganish orqali til o'rgatish metodlari qo'llaniladi. Bu metodda alifbo, harflar va ularning shakllari o'rgatiladi, keyinchalik talaffuz va so'z birikmalari o'rganiladi. Integratsiyalangan yondashuv: Osiyoda arab tilini o'rgatishda ko'p hollarda tilni madaniyat va tarix bilan birga o'rganish yondashuvi qo'llaniladi. Bu

metod tilni o'rgatishning kontekstual yondashuvi bo'lib, o'quvchilarni nafaqat grammatika, balki madaniyat, adabiyot va tarix bilan tanishtirishni maqsad qiladi.

4. Ijtimoiy o'rganish. Tillarni o'rganish uchun madaniy almashinuv: Arab tilini o'rganish ko'plab Osiyo davlatlarida madaniy almashinuvni rag'batlantiradi. Tillarni o'rganish jarayonida o'quvchilar arab mamlakatlariga sayohatlar qilishlari yoki arab tilida so'zlashuvchi guruhlariga qo'shilishlari mumkin. Bu metod ijtimoiy o'rganishning bir qismidir va tilni amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

5. Tayyorlov va sertifikatlash tizimlari. Arab tilining xalqaro imtihonlari: Ko'plab Osiyo davlatlarida arab tilini o'rgatish uchun xalqaro sertifikatlar mavjud. Masalan, At-tanal, TOAFL (Test of Arabic as a Foreign Language) yoki ALPT (Arabic Language Proficiency Test) imtihonlari orqali o'quvchilar arab tilidagi bilimlarini baholashlari mumkin. Umuman olganda, Osiyo davlatlarida arab tilini o'qitish metodlari juda turlicha va xalqaro miqyosda talabga javob beradigan, asosan kommunikativ va texnologik metodlarga asoslangan.

AQSh va Kanada: Arab tili milliy xavfsizlik va diplomatiya uchun strategik ahamiyatga ega til sifatida o'rgatiladi. Arab tilini milliy xavfsizlik, xalqaro diplomatiya va biznes tili sifatida o'rganish keng tarqalgan. AQSh va Kanada arab tilini o'qitish metodlari keng tarqalgan va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan. Bu mamlakatlarda arab tilini o'rganish uchun bir nechta asosiy metodlar qo'llaniladi, ularning ba'zilari quyidagilardir:

1. Kommunikativ metod. So'zlashuvga asoslangan yondashuv: AQSh va Kanadada arab tili o'rgatishda ko'pincha kommunikativ metodlar qo'llaniladi. Bu metodda o'quvchilarga tilni real hayotdagi vaziyatlarda ishlatish imkoniyati yaratiladi. Talaffuz, so'zlashuv, tinglash va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar amaliy mashg'ulotlar orqali arab tilida erkin va ravon so'zlashishga o'rgatadilar. Interaktiv faoliyatlar: O'quvchilarga dialoglar, ro'l o'yinlari, guruh ishlari va suhbatlar orqali tilni o'rgatish usullari keng tarqalgan.

2. Vebinarlar va onlayn darslar: Ko'plab universitetlar va til o'qitish markazlari arab tilini o'rgatish uchun onlayn kurslar taklif etadi. O'quvchilar video darslar, forumlar va onlayn mashg'ulotlarda qatnashib, arab tilini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Grammatik-yodlash metodlari. Tilni asosiy grammatikaga va strukturalarga qarab o'rgatish: Ba'zi o'qituvchilar arab tilini grammatik yondashuv bilan o'rgatishadi, bu metodda alifbo, morfologiya, sintaksis va grammatik qoidalar o'rgatiladi.

4. Madaniy integratsiya. Madaniyat va tilni integratsiyalashgan o'rganish: AQSh va Kanadada arab tilini o'rgatishda madaniyat va tilning bir-biriga bog'liqligi e'tiborga olinadi. O'quvchilar arab madaniyati, san'ati, adabiyoti, tarixiy voqealari va ijtimoiy normallari bilan tanishtiriladi. Madaniy kontekstda tilni o'rganish o'quvchilarga arab tilini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Arab san'ati va adabiyoti: O'quvchilar arab tilida she'rlar, hikoyalar va romanlar o'qish orqali madaniy tushuncha va tilni rivojlantiradilar.

5. Tinglash va talaffuzga alohida e'tibor. Tinglash mashg'ulotlari: O'quvchilar arab tilida so'zlashuvlarni tinglash, xabarlar va maqolalarni tushunish ko'nikmalarini

rivojlantiradilar. O'qituvchilar odatda real hayotdan olingan tinglash materiallari bilan mashg'ulotlar olib boradilar. Talaffuzga katta e'tibor: AQSh va Kanadadagi o'qituvchilar talabalarga to'g'ri talaffuzni o'rgatishga katta e'tibor qaratadilar. Bu metodda talaffuz mashqlarini amalga oshirish, maxsus audio va video materiallar yordamida talabalarni aniq va ravon talaffuz qilishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

6. Imtihonlar va sertifikatlash. Arab tilini baholash tizimlari: AQSh va Kanadada arab tilini o'rganayotgan talabalar ko'pincha tilni o'rganish darajalarini baholash uchun imtihonlarga kiradilar. Masalan, **ACTFL (American Council on the Teaching of Foreign Languages)** yoki **ILR (Interagency Language Roundtable)** sertifikatlash tizimlari mavjud bo'lib, bu tizimlar orqali talabalar o'z til darajalarini tasdiqlashadi. Umuman olganda, AQSh va Kanada arab tilini o'qitishda texnologiya, kommunikativ yondashuvlar va madaniy integratsiyaga katta ahamiyat beradilar.

Xulosa

Xulosa va takliflar. Darsda mashg'ulotlarda turli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, arab tilini o'qitish jarayoni butunlay yangi nuqtai nazardan qaralishi va shaxsni shakllantirishning yangi mexanizmlarini o'zlashtirish, qulay sharoitda sifatli natijalarga erishish mumkin. O'qituvchi arab tilini o'qitish uchun qaysi metodni tanlamasin, uning asosida talabaga ko'proq bilim berish va yoshlar tomonidan arab tilini yaxshi o'zlashtirilishiga yordam ko'rsatishga intilish yotishi lozim. Shundagina har qanday metod o'z samarasini beradi. Yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o'qitish metodikasini zamon talablari darajasida ishlab chiqish zarur. Chet tilni ma'lumki, mashq qilish orqali o'rganiladi. Binobarin, birinchi galda zamonaviy mashqlar tizimini yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish kerak bo'ladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5850-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6084-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli Qarori.
6. الامام العلامة ابن منظور. لسان العرب؟ القاهرة-2013
7. محمد الامين بن الحسن. المعلقات السبع. مصر 2019
8. علي اكبر دهخدا. لغة نامه. تهران- 2013
9. تعليم المتعلم طريق التعلم. الامام الزرنوجي. مصر-2010
10. تاريخ اللغات العربية الفصحى مصر-2005